



O'ZBEK KINOSIDA ODAM SAVDOSI VA DINIY EKSTREMIZM MUAMMOLARINING YORITILISHI

Qodirov Ulug'bek Nosir o'g'li

O'zbekiston Kinematografiya agentligi aktyori.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kino san'atining jamiyat ongiga ta'sir etuvchi kuchli ijtimoiy-kommunikativ vosita sifatidagi ahamiyati yoritiladi. Unda Hilol Nosimov ijodiga alohida e'tibor qaratilib, uning "Aldangan ayol", "Tubanlik" va "Odnoklassniki" filmlari misolida ijtimoiy adolatsizlik, ayollar ekspluatatsiyasi, jinoyatchilik masalalarining estetik ifodasi ochib beriladi. Maqolada kino orqali muammoni hissiy-psixologik darajada anglash, tomoshabinda ijtimoiy ogohlik va mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *kino san'ati, odam savdosi, diniy ekstremizm, badiiy talqin, o'zbek kinosi, ayollar ekspluatatsiyasi.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается значение киноискусства как мощного социально-коммуникативного средства, оказывающего влияние на общественное сознание. Особое внимание уделяется творчеству Хилола Носимова, на примере его фильмов «Обманутая женщина», «Низость» и «Одноклассники» раскрывается эстетическое осмысление проблем социальной несправедливости, эксплуатации женщин, идеологического заблуждения и преступности. В статье с научно-теоретической точки зрения анализируются вопросы осмысления социальных проблем через кино на эмоционально-психологическом уровне, а также формирования у зрителя социальной бдительности и идеологического иммунитета.*

Ключевые слова: *киноискусство, торговля людьми, религиозный экстремизм, художественная интерпретация, узбекское кино, эксплуатация женщин.*

Abstract: *This article examines the significance of cinema as a powerful socio-communicative medium that influences public consciousness. Special attention is given to the works of Hilol Nosimov, and through the analysis of his films "Deceived Woman," "Degradation," and "Odnoklassniki," the aesthetic representation of social injustice, women's exploitation, ideological confusion, and crime is revealed. From a scientific and theoretical perspective, the article analyzes the role of cinema in understanding social issues at an emotional and psychological level, as well as in shaping social awareness and ideological immunity among viewers.*

Keywords: *cinema art, human trafficking, religious extremism, artistic interpretation, Uzbek cinema, exploitation of women.*

Kino – bu insoniyat ongini, jamiyat ruhiyatini, sotsial hodisalarni estetik shaklda aks ettiruvchi kuchli kommunikatsiya vositasi hisoblanadi. XX asrning boshlarida paydo bo'lgan kino san'ati qisqa muddat ichida faqatgina ko'ngilochar yoki badiiy estetik vosita





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

emas, balki muhim axborot manbai, ijtimoiy ongni shakllantiruvchi media vositasiga aylandi. Ayniqsa, global ijtimoiy muammolar — urush, jinoyatchilik, zo‘ravonlik, inson huquqlarining poymol qilinishi, inson savdosi, diniy ekstremizm, radikalizm va terrorizm kabi tahdidlar san’atda, xususan kinematografiyada o‘z aksini topa boshladi.

Kino orqali muammoni yoritish ikki jihatdan muhim: birinchidan, u tomoshabinga hissiy-ruhiy ta’sir ko‘rsatadi, ikkinchidan, muammoni shaxsiy hayotlar kontekstida ko‘rsatgan holda, uni ijtimoiy ongga yaqinlashtiradi. Yevropa, Amerika va Osiyo mamlakatlari kinolarida odam savdosi va terrorizm mavzulari ko‘plab uslublar orqali yoritib kelinadi: dramatik hikoya, hujjatli yondashuv, psixologik portret, sotsial realizm va boshqalar.

O‘zbek kinosi ham bunday mavzularga yuz tuta boshladi. Ijtimoiy kinoning asosiy vazifasi — mavjud muammoga diqqatni jalb qilish, uni badiiy obrazlar orqali ifodalash va tomoshabinga yechim yo‘llarini ko‘rsatishga urinishdir. Ayniqsa, odam savdosi va terrorizm kabi jinoyatlar jamiyatning eng og‘riqli, ko‘zga ko‘rinmaydigan qatlamlarida shakllanadi. Bunday holatlarni o‘rganish esa oddiy hujjatli manbalar emas, balki badiiy talqin orqali chuqurroq his qilinadi. Odam savdosi — bu insonni aldash, majburlash, zo‘rlilik bilan ishlatish, ekspluatatsiya qilish maqsadida noqonuniy tarzda olib yurish, sotish yoki boshqa shartlar asosida majburiy mehnatga jalb qilish shaklida namoyon bo‘ladigan global jinoyatdir.

BMT ma’lumotlariga ko‘ra, har yili 21-25 million atrofida inson bu jinoyat qurboniga aylanadi, ularning 70 foizdan ortig‘i ayollar va qizlardir.

Odam savdosi kino orqali tasvirlanganda, bu faqat jinoyat emas, balki ijtimoiy adolatsizlik, iqtisodiy qashshoqlik, ma’naviy bo‘shliq kabi chuqur muammolar bilan bog‘liq holda ifodalanadi.

Jahon kinematografiyasida odam savdosi mavzusiga oid filmlar, xalqaro kinematografiyada bu mavzu ko‘p yondashuvlarda o‘rganilgan.

Odam savdosi mavzusiga bag‘ishlangan filmlar:

- “Tutqunlikda” (2007, AQSH-Germaniya) — Markaziy Amerika orqali AQSHga sotib yuborilayotgan qizlar haqida;

- “Лиля навсегда” (2002, Shvetsiya) — hayotdan umidini uzgan qizning odam savdosi qurboniga aylanishi;

- “Тебя никогда здесь не было” (2017) — jinoyat tarmog‘iga qarshi kurashayotgan sobiq askarning psixologik portreti.

Mazkur filmlar ko‘proq sotsial realizm, triller, detektiv va dramatik janrlarda ishlangan.

O‘zbek kinosida odam savdosi va terrorizm mavzusi 2000-yillarning o‘rtalaridan boshlab asta-sekin ko‘tarila boshladi. Ushbu mavzular, albatta, dolzarb bo‘lishiga qaramay, ular ochiq yoritilishi, psixologik tahlil qilinishi ko‘p hollarda yuzaki tarzda ifodalanib kelgan. Bunga sabab – senzura, jamiyatda bu mavzularga nisbatan noziklik va kinoni ko‘proq tarbiyaviy vosita sifatida ko‘rish tendensiyasidir. Shu bois faqatgina





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ijtimoiy drama janrida emas, balki publitsistik kino, hujjatli film va seriallarda bu mavzular aks etdi. Aytish joizki, mustaqillik yillarida milliy kinoda yuzaga chiqqan ijtimoiy kinorejissyorlar bu borada muhim qadamlar tashladi. Shular qatorida Hilol Nosimov, Ayub Shaxobiddinov, Dilmurod Masaidov, Baxodir Adilov, Rustam Sa'diyevlar ijodi alohida o'rganishni talab qiladi.

Hilol Nasimov ko'plab ijtimoiy va dramatik filmlar muallifi sifatida tanilgan. Uning mashhur asarlari orasida "Aldangan ayol", "Tubanlik", "Gumrohlar", "Odnoklassniki.ru", "Muqaddas burch" va "Merosxo'r" filmlari mavjud. 2021-yilda suratga olingan "Meros" filmi O'zbekiston va Qozog'iston xalqlari o'rtasidagi do'stlik va diniy qadriyatlarni yoritib, xalqaro kinofestivallarda e'tirof etilgan. Uning filmlarida ko'proq real hayotdagi og'riqli, ammo odatda ochiqchasiga yoritilmaydigan mavzular — ijtimoiy tengsizlik, jinoyatchilik, mafkuraviy adashuv, shaxsiy fojia orqali jamiyatdagi chuqur muammolar ifodalanadi.

H. Nosimov asarlarining asosiy xususiyatlari: realikka yaqinlik: voqealar haqiqiy hayotdan olingan yoki ilhomlantirilgan; soddalikda dramatism: murakkab psixologik holatlar soddalikka dialoglar va holatlar orqali beriladi; yuqori ijtimoiy mas'uliyat: har bir film tomoshabinda ongiy va axloqiy iz qoldiradi; axboriy komponent: film publitsistik kuchga ega — ya'ni tomoshabinni xabardor qilishga xizmat qiladi. H.Nosimovning "Aldangan ayol", "Tubanlik" va "Odnoklassniki" filmlari odam savdosi va diniy ekstremizm mavzularining badiiy yoritilishida alohida o'rinni egallaydi. Bu filmlar ijtimoiy ongga ta'sir ko'rsatish, axboriy ogohlilikni oshirish hamda mafkuraviy profilaktika vositasi sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Masalan: "Aldangan ayol" filmi 2011-yil suratga olingan bo'lib, ssenariy muallifi G'ofur Eshmurodov va Hilol Nasimov, bosh rollarni Rayhon Ulasenova, Yulduz Hamidova, Tolib Mo'minov va yana bir qancha aktyorlar ijro etishgan.

Filmning syujetida bosh qahramoni — soddalikka diniy e'tiqodli va halol hayot kechiruvchi ayol. U tasodifan diniy ekstremistik guruh vakillari bilan tanishib qoladi. Ular ayolning e'tiqodidan foydalanib, uni o'z saflariga jalb qilishadi. Filmida ayolning bu tuzoqqa qanday tushib qolganligi, uning oilasi va jamiyatdagi o'rni, shuningdek, ekstremizmning salbiy oqibatlarini yoritiladi. Bu asar orqali jamiyatda diniy savodsizlik va aldovlar orqali odamlarni yomon yo'llarga boshlash xavfi haqida ogohlantirish beriladi. "Aldangan ayol" filmida, asosiy qahramon Ayolning o'zini baxtli deb his qilish uchun qiladigan qarorlari natijasida, uning hayoti qanday qilib noxush va fojiali holatga kelib qoladi. Ayol, bir tomondan, ozodlikka intilish va o'zini tanish orqali yangi dunyoni kashf etishga harakat qiladi, ammo boshqa tomondan, aldanib, qora bozorda ishlatiladi. Filmida jamiyatning iqtisodiy qiyinchiliklari va ayollarni ekspluatatsiya qilishning o'ziga xos jihatlari ko'rsatilgan.

Filmning birinchi yarmida Ayolning motivlari, uning ichki kechinmalari va qarorlarini tushunishimiz mumkin. Ikkinchi yarmida esa filmning toni o'zgaradi: Ayolning aldanib qolishi va uning odam savdosi tizimidagi dramatik tarzda ko'rsatiladi. Hilol Nasimov filmidagi kadrlar orqali ayolning zaifligini va jamiyatdagi o'zini qadrlash muammolarini





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ko'rsatadi. Ularning ortida insoniy ishtiyoqlar, niyatlar va o'zini tan olishga bo'lgan ehtiyoj bor. Rejissior jamiyatdagi ayollarni bu kabi fojialar bilan bog'laydi, chunki bu noxush hodisalar nafaqat shaxsiy, balki jamiyatdagi kengroq masalalarning aksidir.

Aldangan ayol filmida jamiyatdagi ayollarni ekspluatatsiya qilish va ijtimoiy nohaqliklar ko'rsatiladi. Ayollarni faqat jismoniy ob'ekt sifatida qarash, ularga nisbatan zo'ravonlik va ularning moliyaviy zaifligi filmida muhim mavzuga aylangan. Filmida aktrisa o'z rolini juda maromida ijro etgan, Aktrisa Rayhon Ulasenova bu rolni professional mahorat bilan ijro etgan, uning sodda ayolni tasvirlashi va ana shu ayol rovida yashashi har bir kadrda bilinadi.

Ushbu film tomoshabini chuqur o'ylashga chorlaydi, ba'zi bir tomoshabin odam shunchalik ham sodda bo'lishi mumkinmi o'zi o'qituvchi bo'lsa desa, yana biri o'zbek xalqi baribr sodda xalq degan gapga yana bir bor amin bo'ladi. Odam savdosi bilan shug'illanadigan insonlar shunchalik abjir va yolg'onga shunchalik usta bo'lishadiki, dini niqob qilib odamlarni o'z qaramog'iga ilintiradi. Bosh qahramoning O'zbekistonga qaytishi va qilgan ishlaridan afsuslanishi filmning ohirida ko'ngilni jumbushga keltiradi. O'zining qilgan ishlaridan uyalishi va farzandlariga qilgan muomilasidan afsusdaligi aktrisini yaqqol yuzidan ma'lum bo'lgan.

Filmida operator Najmiddin G'ulomov har bir kadrni mahorat bilan suratga olgan. Har bir kadrni ranglari epizod olinadigan sahnalar juda to'g'ri tanlangan.

Ayniqsa poyezda olingan sahna juda katta professionallik talab qiladi. Operator o'z mahoratini ishga solib barcha kadrlarni rejissior xohlagandek suratga olib bergan deb o'ylayman.

Filmidagi musiqalar har bir kadr uchun tog'ri tanlangan, chunki musiqa filmning asosiy temporitmini belgilab beradi. Agar musiqa to'g'ri tanlanmasa filmga nimadr yetishmayotganligi bilinadi. Ba'zida birgina musiqa orqali butun bir film tomoshabinni esida qoladi, butun bir film yodiga tushadi. Shuning uchun tog'ri tanlangan musiqa ahamiyati kattadir. Musiqa orqali filmning boshlanishi voqealar rivoji, kulminatsion nuqtasini va yakunini anglasa bo'ladi.

Aldangan ayol filmi jamiyatni ogohlikka chorlaydi, nafaqat ayollarga balki erkaklarni ham yot g'oyalarni bilib bilmasdan notog'ri yo'llarga kribb ketmasligi kerakligi haqida ogohlantiradi. Ushbu film barchamizni ogoh bo'lishga chorlaydi.

Hilol Nasimov shaxsiyati va faoliyati shuni ko'rsatadiki, bugungi davr ijodkori faqat iste'dod bilangina emas, balki pozitsiya, intizom va mas'uliyat bilan ham o'lchanadi. U o'z ishida zamon bilan hamnafas bo'lishga, jamiyatdagi muammolarni o'z qarashi orqali ko'rsatishga, ularni fikr va so'z orqali muhokamaga olib chiqishga urinadi. Uning filmlari zamon nafasini, o'zbekistonliklar ma'lum davrlarda qay holatda yashaganini tushunishga yordam beradi.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nasimov H. *Ijod yo'li va adabiy qarashlari*. – Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2020.
2. Yo'ldoshev M. *Kino va jamiyat: O'zbek kinosining ijtimoiy funksiyasi*. Toshkent: Akademnashr, 2010.
3. www.afisha.uz
4. Abdullayeva N. *O'zbek milliy teatr maktabi: XX asr aktyorlik tajribasi*. Toshkent: San'at, 2004.
5. www.kino-teatr.ru

